

BOLALARNI MUOMALA ODOBIGA O'RGATISHDA ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING O'RNI

ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ЭТИКЕТУ МЕСТО МУДРОСТИ АЛИШЕРА НАВАИ

TEACHING CHILDREN ETIQUETTE

THE PLACE OF THE WISDOMS OF ALISHER NAVAI

Raximova Gulbaxor¹, 1.- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarkand, O'zbekiston

Fayziyeva

Shamsiya²

Obidjonova

Ruxshona³

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda hazrat Alisher Navoiy hikmatlarining o'rni haqida mulohaza yuritilgan. Boshlang'ich ta'lilda Alisher Navoiy hikmatlarini o'qitish usullaritahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, ta'lim, ma'rifat, umuminsoniy qadriyatlar, yaxshilik, ezungulik.

Аннотация. В статье рассматривается роль мудрости Алишера Навои в формировании духовности подрастающего поколения. Анализируются методики преподавания мудрости Алишера Навои в начальном образовании.

Ключевые слова. Воспитание, образование, просвещение, общие человеческие ценности, доброта, гуманизм.

Annotation. This article examines the role of Alisher Navoi's wisdom in shaping the spirituality of the younger generation. Analyzes the methods of teaching Alisher Navoi's wisdom in primary education.

Key words. Upbringing, education, enlightenment, common humans traditions, good, goodness.

Xalqimizda "Bola boshidan, o'g'lon yoshidan" degan maqol bor. Yoshlik-dagi to'g'ri tarbiya inson kamolatini belgilaydi. "Tarbiya" darslari farzandlarmizda mehr-oqibat, hurmat va izzat, kamtarinlik, yaxshilik xislarini tarbiyalashga qaratilgandir. "Tarbiya" darslari o'quvchilarini xalqimizning boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va milliy qadriyatları bilan tanishtiradi. Odob va axloq ilmini farzandlarimizning ongi va qalbiga singdirishmizda mazkur fanning ahamiyati katta. Ayniqsa, "Tarbiya" darsliklariga kiritilgan odob-axloqqa doir katta-katta bo'limlarni bolalarga o'rgatish uchun kerakli bo'lgan qo'shimcha materiallarni qayta hikoyalash va bayon etish orqali ularga tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Odob – inson uchun ziynat bo'limida salomlashish odobi, muomala odobi kabi odob-axloq qoidalari berilgan. Ushbu bo'limdagи mavzularini o'tishda bolalarga so'zlashish odobi xushmuomalalik va samimi munosabat haqida tushunchalarini berishda Alisher Navoiyning hilm, tavoze, iltifot va marhamat kabi falsafiy tushunchalarini o'zida mujassam ettiruvchi hikmatlari asosida fikr yuritish ijobiy natija beradi:

Ey talab uyida nishast aylagan,
Qaddini xizmat yuki past aylagan.
Lek bu yo'l qat'ida sharti talab,
Bilki tavoze' bila kelmish adab.
Chunki tavoze'g'a xam o'ldi hilol,

*Raximova Gulbaxor,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
dotsenti,*

*Fayziyeva Shamsiya,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
talabasi*

*Obidjonova
Ruxshona,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
talabasi*

[Gulbahorrahimova17
@gmail.com](mailto:Gulbahorrahimova17@gmail.com)

Bo‘ldi fuzunroq anga har kun kamol.

“Yo”g‘a tavoze’ sifati berdi dast,

Qadr ila mushaf uza topti nishast.[1]

Hazrat Alisher Navoiy nazdida Hilm inson vujudining xushmanzara bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillikni hodisalar to‘la dengizdagи kishilik kemasining langari desak va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsak ham bo‘ladi. Hilm axloqi odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsnı daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchidir. Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi, hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi:

Tarki adabdin biri kulgu durur,

Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,

Boshig‘a ul kulgu balo kelturub. [2]

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi, yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e’tiborsiz bo‘ladi. Bu davr bog‘ining xas-xashak singari odamlari shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go‘yo og‘ir tabiatli va yomon fe’lli, deb kamsitiladi. Ularning o‘zлари esa, quyundek tuproqni havoga to‘zitadilar va yengiltabiatliklari bilan boshlarini go‘yo ko‘kka yetkazadilar. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi, o‘tdek otashdonni qizdirishdan o‘zga ishni bilmaydi. Yel-shamol, agar ko‘kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz, tog‘ agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor, hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho‘g‘ kabi qizil la‘l-qimmatbaho tosh bor:

G‘uncha kulub bo‘ldi ochilmoq anga,

Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

Kulguki o‘z haddidin o‘ldi yiroq,

Yig‘lamoq andin ko‘p erur yaxshiroq.

Ravshan etib sham‘ni har tun yig‘i,

Yelga berib g‘unchani xandonlig‘i.[3]

Kimki ko‘ngilni qattiq so‘z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngilda til nayzasining jarohati bitmas, u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so‘z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so‘z – vahshiylarni ulfatga aylantiradi, sehrgar – ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi. Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma – kechalari tong otguncha timmay huradigan itga o‘xshaydi. Tili yomon odam – xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog‘i – eshakning bemahal hangramog‘i kabitdir. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi, ko‘ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz

g‘am – uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkonibor, shuning uchun ham aytadilarki, “nafasning joni bor”:

Qahqahakim hazl aning yordur,
Qurbaqa savti bila raftoridur.
Harza erur chunki musha’bid so‘zi,
O‘z tilini ko‘rki kesar ham o‘zi.[4]

O‘zi xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi. Baxt bag‘ishlovchi toza ruh manbayi ham til, yomonliklar keltiruvchi nafs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil, so‘zga erk bergan odam – beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi, til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a’zolardir. Bo‘stonda – gulsafsar, gulg‘uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir. Odam – tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir. Til shirinligi – ko‘ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa – foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko‘pchilikka zarari tegadi, qanddan may tayyorlansa xarom bo‘ladi. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir, bolalar uchun muloyim tabiatli odam – halvofurush kabi sevimlidir:

Yana bukim, yaxshi-yomon dema so‘z,
El yomonu yaxshisig‘a solma ko‘z.
Yana bukim ranj etar, gar taab,
Asra yomon-yaxshig‘a sharti adab.[5]

Har kimningki so‘zi – yolg‘on, yolg‘onligi bilingach, uyatga qolg‘on, yolg‘onni chindek gapiruvchi so‘z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargardir. Yolg‘on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg‘onchi – uyquda alahlovchidir. Yolg‘on gapiruvchi g‘aflatdadir, so‘zning bir-biridan farqi ko‘pdir, ammo yolg‘ondan yomonroq turi yo‘qdir.

Yolg‘on gapirish bilan o‘z vaqtini o‘tkazuvchi odam, bu qilig‘i yomon tuyulish o‘rniga, kishilami aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg‘onchi o‘z gapiga go‘llik bilan qulq soluvchini topsa, ularga yolg‘onni chinga o‘tkazsa, murodiga yetgan bo‘ladi. Yolg‘onchi – haq qoshida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning beor yuzi yomonlikka o‘girilgan bo‘ladi, bunday nahsga botgan odam qutlug‘ uydan nari bo‘lg‘ay. Kimki, yolg‘on so‘zni birovga to‘nkagay, o‘z qora yuzini yog‘ga bulaydi. Ozgina yolg‘on ham ulug‘ gunohdir, ozgina zahar ham halok qiluvchidir. U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o‘z bo‘yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo‘lsa ham ko‘ngilsizdir, yolg‘on bo‘lsa yanada nafratlidir. So‘z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi – do‘zax o‘tining tutanturug‘idir:

Anda durur shart tavozu’ sanga,
O‘trusida qat’i tavaqqu’ sanga.[6]

Yolg‘onchi odam – unutuvchi, u andisha va ehtiyyotdan chetda turuvchi. Har kimning so‘zi chin bo‘lmasa, rostgo‘ylar ko‘ngliga u so‘z qabul bo‘lmas. Yolg‘onchi o‘zining yolg‘on so‘ziga bir-ikki marta ishontiradi, keyin nima qiladi?

Yolg‘onchiligi ma’lum bo‘lgach, u rasvo bo‘ladi, uning so‘ziga xalq ishonchi yo‘qoladi. Yolg‘on so‘z she’rdan boshqa yerda nomaqbul va yolg‘onni aytuvchi aqlsizdir. Ushbu hikmatning ma’nosini bolalarga to‘laroq qilib tushuntirishda shoirning “Hayrat ul-abror” dostonidagi “Yolg‘onning zarari, to‘g‘rilikning foydalari”ga bag‘ishlangan o‘ninch [7] maqolatida keltirilgan “Sher ila durroj” hikoyatini so‘zlab berish ham mumkin.

Yomon qiliqli odam – badfe’l, achchig‘i tez – bir baloga giriftor, bir ofatga mubtalo badbasharadir. Bular qayon borsa – balodan qutilmas, har yerga qochsa ham ofatdan xalos bo‘lmas. Yomon qiliq g‘olib dushmandir va qahrli yovdir, yomon qiliqli kishi esa doim unga mag‘lub va vujudi undan majruh. Ochiq chehrali odam – ikkiyuzlamachilikdek nuqsandan yiroq bo‘ladi. Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so‘zidan el-yurtga xurramlik ularashiladi. Odamiylik bilan ko‘ngillarga sevimli, insoniylik bilan jonlarga yoqimli bo‘ladi. Undan do‘st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay. Aqli odam yolg‘on gapirmas, ammo, barcha rost gapni aytaverish ham to‘g‘ri emas. Birovning ko‘zi g‘ilay – nogirondir, ammo bunga u aybdor emasdir. Birovni nohaq xijolatga solmoq – o‘z nodonligini izhor qilmoq va bir ko‘ngilni og‘ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so‘zdan ko‘ra zarurat yuzasidan – o‘rni bilan gapirilgan yolg‘on yaxshiroqdir. Navoiy ushbu nasihatlarni yozganda Sharq didaktikasidagi an’anaviy fikr-mulohazalarga emas, birinchi navbatda o‘z hayotiy tajribalariga asoslangan edi.

Xullas, tarbiya inson hayotida juda muhim sanaladi, shu sababli ta’lim jarayonida bunga alohida e’tibor qaratish pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Buni bevosita badiiy adabiyot orqali amalga oshirish mumkin. Chunki badiiy asarlar o‘quvchi ongiga yetarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz, xususan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy hikmatlarini o‘rganish, ularda aks ettirilgan umuminsoniy g‘oyalar komil insonni tarbiyalashni tashkil etadi. Bu bugungi kunimiz uchun ham dolzarb masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.7. –T.: “Fan”, 1997. – 541 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. T.1. –T.: “Fan”, 1983. – 654 b.
3. “Tarbiya”. Umumta’lim maktablari uchun darslik. 1-sinf. – T.: “O‘qituvchi”, 2022. – 94 b.
4. Gulbahor Raximova (2023, April). O‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda matn va rasmlarning o‘rni. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).
5. Qarshiyevna r. g. (2023). boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. " england" modern psychology and pedagogy: problems and solution, 10(1).
6. Raximova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2022. – 308 b.